

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA RAQAMLI MULOQOT TUSHUNCHASI

Choriyeva Charos Salomovna

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: choriyevacharos94@gmail.com

Annotatsiya. Sun'iy intellekt dasturlarining, global tarmoq texnologiyalarining tobora keng qo'llanishi tillarning ham tezlik bilan raqamli ko'rinishga o'tishini taqozo etmoqda. Tillarning kelgusida mavjud bo'lish yoki bo'lmasligi masalasi ularning raqamlashtirilishiga bog'liq ekan, mazkur mavzuga doir tadqiqotlar ham zamonaviy tilshunos olimlarning e'tibor markazida turibdi.

Kalit so'zlar: raqamli muloqot, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy aloqa, globallasuv, multimodal muloqot.

Annotation. The increasing use of artificial intelligence programs and global network technologies is also requiring the rapid digitalization of languages. Since the question of whether languages will exist in the future depends on their digitalization, research on this topic is also in the focus of attention of modern linguists.

Keywords: digital communication, digital technologies, social communication, globalization, multimodal communication.

Аннотация. Растущее использование программ искусственного интеллекта и глобальных сетевых технологий также требует быстрой цифровизации языков. Поскольку вопрос о существовании языков в будущем зависит от их цифровизации, исследования по этой теме также находятся в центре внимания современных лингвистов.

Ключевые слова: цифровая коммуникация, цифровые технологии, социальная коммуникация, глобализация, мультимодальная коммуникация.

Bugungi globallasuv davrida raqamli texnologiyalar va ular orqali amalga oshiriladigan raqamli muloqotga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi tilni yangi rakurslardan turib tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. "...Tilni faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatidagina talqin etish insonning tabiiy tilini, bu benihoya murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, jo'nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mutlaqo mosuvo bo'lgan sun'iy tilga, (masalan, esperanto kabi) tenglashtirishdan, yo'l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli "til"ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas".[1.44] Tilshunos olim N.Mahmudovning mazkur fikrlari nechog'li haqiqat ekanligini bugun zamonning o'zi ko'rsatib turibdi. Yaqin-yaqingacha biz tilni ijtimoiy aloqa vositasi deya o'rgangan bo'lsak, endilikda u raqamli kommunikatsiyada tamoman yangi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Bugun XXI asrning asosiy axborot almashinish vositasi hisoblangan ijtimoiy tarmoqlar juda qisqa vaqt ichida muloqotning asosiy shakllaridan biriga aylanib ulgurdi. Muloqotning mazkur shakli undan foydalanuvchilar sonining nihoyatda ko'pligi, bir vaqtning o'zida yer yuzining istalgan nuqtasidagi insonlar bilan axborot almashinuv imkoniyatining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Raqamli kommunikatsiya deganda internet va raqamli platformalar orqali matn, emoji, rasm, video va boshqa vositalar yordamida amalga oshiriladigan axborot almashuv jarayonini tushunamiz. Raqamli muloqot esa raqamli kommunikatsiya jarayonida qisqa, vizual tarzda amalda bo'luvchi muloqot shakli hisoblanadi. An'anaviy, yuzma-yuz muloqotdan farqli holda raqamli muloqot jarayonida muloqot ishtirokchilari vaqtlarini tejash,

fikrlarini ixcham, qisqa ravishda bayon qilish yo'li bilan foydalanuvchilarga qulaylik yaratish imkoniga ega.

Raqamli aloqani o'rganish antroposentrik ilmiy paradigmaning muhim lingvistik muammosidir, shu sababli zamonaviy jamiyatning to'liq raqamlashtirilishi tilshunoslarning e'tiborini kuchaytirdi. Bir guruh olimlar raqamli (kompyuter) texnologiyalari faol ishtirok etadigan aloqa kontekstidagi o'zgarish odamlarning muloqotida global o'zgarishlarga olib keladi, degan xulosaga kelishdi. Raqamlashtirish aloqaning anonimligini, globallashtirishni va barcha aloqa jarayonlarining tezlashishini, ham shaxsiy, ham professional muloqotda aks ettirishi bilan xarakterlanadi.[2,9]

Biz bugun zamonaviy inson deganda nafaqat chet tili va dunyoviy bilimlarga ega kishini, balki, o'z ona tilidan zamonaviy texnologiyalar vositasida samarali foydalana oladigan kishini tushunamiz. Shu sababli ham "raqamli shaxsiyat" tushunchasi paydo bo'ldi. Darhaqiqat, bugun ijtimoiy tarmoq yozishmalari insonlarning psixologik, intellektual qiyofasini belgilab beruvchi muhim maydon sanaladi.

Raqamli tilshunoslik IT va ijtimoiy fanlar kesishmasida joylashgan zamonaviy fanlararo bilim sohasidir. Ushbu fan hisoblash usullari yordamida tabiiy tilni modellashtirish va qayta ishlashga, shuningdek, ma'lum yondashuvlar yordamida til muammolarini o'rganishga urg'u beradi. Raqamli tilshunoslikning asosiy maqsadi raqamli davrda muloqot uchun keng qamrovli nazariy va amaliy vositalarni taqdim etishdir. Bu til bilimlarini, jumladan, ona tili va xorijiy tillarni yaxshi bilishni nazarda tutadi.[3,2]

Zamonaviy tilshunoslikning yetakchi olimlaridan biri B.Mengliyev "Raqamlashtirilmagan til – o'layotgan til" deya e'tirof etarkan, quyidagi fikrlarni bildiradi: "Insoniyat tarixida tillar qurol, din, savdo, madaniyat, davlat orqali kuch topgan. Ammo XXI asrda yangi bir omil paydo bo'ldi. Bu – texnologiya. Bugun bir haqiqatni tan olishimiz kerak. Endi raqamlashmagan til yashamaydi. Til texnologik ekotizimga ulanmasa, u o'qilmaydi, u yozilmaydi, tarqalmaydi va o'rganilmaydi"

Bizga ma'lumki, insoniyat eng qadimgi axborot almashinuv vositasi sanalgan xatlardan tortib to bugungi zamonaviy raqamli platformalargacha bo'lgan uzoq va tarixiy davrda turli-tuman, biri ikkinchisini mutlaqo takrorlamagan aloqa vositalaridan foydalanib kelgan. Ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda N.Tuxtaxodjaye va raqamli muloqotning shakllanish tarixini to'rt davrga bo'lib o'rganishni taklif qiladi:


1. Boshlang'ich bosqich (1970–1990-yillar) – elektron pochta va forumlar paydo bo'lib, yozma muloqot tezkor shakl oldi.

2. O'tish davri (1990–2005-yillar) – internet keng ommaga tarqaldi, chat xonalari va birinchi ijtimoiy tarmoqlar (ICQ, MSN, MySpace) shakllandi.

3. Ijtimoiy tarmoqlar davri (2005-yildan hozirga qadar) – Facebook, Twitter, Instagram, Telegram kabi platformalar paydo bo'lib, multimodal muloqot (matn, ovoz, rasm, video) asosiy vositaga aylandi.

4. Sun'iy intellekt va global kommunikatsiya davri (2020-yildan hozirga qadar) – chatbotlar, avtomatik tarjimonlar va neyron tarmoqlar ishtirokida muloqot shakllari yanada murakkablashmoqda.[4,2]

Raqamli tilshunoslik hozirgi davrning juda tez rivojlanayotgan tadqiqot sohasidir. U til va muloqot haqidagi tushunchamizni yaxshilash uchun ulkan salohiyatga ega. Kelajakda raqamli tilshunoslik quyidagi muammolarni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin: [5,49]



Xulosa qilib aytganda, bugungi zamonaviy jamiyatda tillarning yashab qolish imkoniyati ularning raqamli muloqotda mavjudlik darajasiga bog'liq. Tilning raqamli muhitga o'tishi uning uchun yangi imkoniyat eshiklarini ochadi, keyingi avlodga bus-butun o'tishi uchun asos vazifasini bajaradi. Shuning uchun so'nggi yillarda tilshunoslikda ushbu mavzudagi tadqiqotlarga talab ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Махмудов Н. Маърифат манзиллари. Тошкент: Маънавият, 1999. 44-бет.
2. С.В.Первухина, М.П.Чуриков ЦИФРОВАЯ КОММУНИКАЦИЯ В ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ // Russian Linguistic Bulletin. — 2021. — №2 (26). — URL: <https://rulb.org/archive/2-26-2021-june/tsifrovaia-kommunikatsiia-v-lingvisticheskikh-issledovaniiah> (Дата обращения 16.04.2026). — DOI: 10.18454/RULB.2021.26.2.1
3. Степанов В.А. Важность цифровой лингвистики в эпоху искусственного интеллекта // Филологический аспект: международный научно-практический журнал. 2025. № 08 (124). Режим доступа: <https://scipress.ru/philology/articles/vazhnost-tsifrovoj-lingvistiki-v-epokhu-iskusstvennogo-intellekta.html> (Дата обращения: 30.08.2025)
4. Tuxtaxodjayeva N. Raqamli muloqotning (digital discourse) kognitiv-pragmatik xususiyatlari va uning shakllanish tarixi. // Vol. 1 No. 1 (2025): Worldwide Cross-Disciplinary Research. 21.09.2025. <https://interspp.com/index.php/wc/article/view/1938>
5. Оразнепесов А.Ч., Оразнепесов А.Ч. Цифровая лингвистика: влияние технологий связи и сетей на язык и общение в современном обществе //Символ науки, № 11-2-2. 2023. С. 47-49.